

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3--SON  
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>R.A.Mamajonov</b> O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida xuquqiy va axloqiy-me'yoriy munosabatlar, o'zaro muloqot madaniyati .....	545
<b>B.A.Pulatov</b> Yoshlar tafakkurida harbiy qahramonlik ideallarini shakllantirishda ta'lim-tarbiyaning istiqboldagi vazifalari .....	548
<b>K.I.Marayimova</b> Bo'lajak o'qituvchilarni turizm faoliyatiga tayyorlashning pedagogik-psixologik xususiyatlari ...	552
<b>N.M.O'rinova, G.I.Tillabayeva</b> Talabalarning mustaqil ta'lim olish kompetentligini rivojlantirish usullari .....	557
<b>D.I.Asqarova</b> Innovatsion yondashuv asosida bo'lajak tarbiyachilarda kreativlikni rivojlantirish omillari .....	561
<b>M.Q.Jabborova, Sh.D.Raxmatjonov</b> Maktabgacha yoshdagi bolalarni psixologik, intellektual va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishda ilk davrning o'ziga xos xususiyatlari .....	569
<b>M.Q.Jabborova</b> Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarini pedagogik faoliyatga tayyorlashning zamonaviy sifatiga erishish omillari .....	572

---

FALSAFA

<b>A.A.A.Qambarov</b> "Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari" konsepsiyasini amalga oshirishda diniy qadriyatlar omilining innovatsion xususiyatlari .....	579
<b>I.M.Arzimatova</b> Boshqaruv kadrlari faoliyatida ma'naviyatning o'rnini .....	583
<b>D.E.Normatova</b> Sharq ilk uyg'onish davri va uning ilmiy-falsafiy mohiyati .....	588
<b>I.A.Asatulloev</b> Karl Yung qalb konsepsiyasida sharq va g'arb xalqlari ma'naviy hayotining qiyosiy tahlili .....	593
<b>T.Y.Bakirov, S.A.Soxibov</b> Korrupsiyaviy munosabatlarni oldini olishning falsafiy-analitik tahlilining ta'limiy jihatlari .....	597
<b>S.S.Evatov</b> Kalom ilmining vujudga kelishi va uni islomdagi aqidaviy masalalarni o'rganishdagi o'rnini .....	602
<b>I.Y.Toirov</b> Sivilizatsiya masalalarining nazariy - metodologik jihatlarni o'rganish muammolari .....	606
<b>A.M.Rasulov</b> Axborot va axborot makoni tushunchasi, ularning falsafiy tahlili .....	610
<b>A.A.Sayitxonov</b> Jamiyat va shaxs rivojida qadriyatlarning o'rnini .....	614
<b>F.A.Yuldashev</b> Socio-philosophical analysis of categories of needs and interests .....	618
<b>S.P.Tojiboyev</b> Boshqaruv kadrlarining axloqiy madaniyati va unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar tahlili .....	625
<b>B.X.Mirzaraximov, B.T.Shokirov</b> Yoshlarda axborot madaniyatini shakllantirishning asosiy mezonari .....	631
<b>M.A.Abduxamidov</b> Sovetlarning O'zbekistondagi masjidlariga munosabatining tahlili .....	635

---

SIYOSAT

<b>J.A.Dadaboyeva</b> Farzandlikka olishni bekor qilish asoslari .....	638
<b>A.A.G'aniyev</b> Yangi iqtisodiy siyosat sharoitida O'zbekiston qishloq xo'jalik kooperativlari faoliyati .....	643

---

TARIX

<b>B.A.Usmonov</b> "Sohibqiron" atamasining kelib chiqishi va ma'nosiga oid fikrlarga bir .....	648
----------------------------------------------------------------------------------------------------	-----



UO'K: 930.9

**“SOHIBQIRON” ATAMASINING KELIB CHIQISHI VA MA'NOSIGA OID FIKRLARGA BIR NAZAR****ВЗГЛЯД НА ПРОИСХОЖДЕНИЕ И ЗНАЧЕНИЕ ТЕРМИНА «САХИБКИРАН»****A VIEW ON THE ORIGIN AND MEANING OF THE TERM “SAKHIBKIRAN”**

**Usmonov Bahriddin Ahmedovich**   
Farg'ona davlat universiteti professori

**Annotatsiya**

*Ushbu maqolada Sohibqiron atamasining kelib chiqishi, ma'nosi, mohiyati va qo'llanilishi bo'yicha tarixshunoslikdagi mavjud qarashlar tahlil etilgan. Unda mazkur atama dastlab mo'g'ul xonlari davrida Eronda faoliyat olib borgan fors tarixchilari tomonidan qo'llanilganligi, lekin Amir Temurga nisbatan qo'llanilishi natijasida shuhrat topganligi, keyinchalik Sharq va Movarounnahning ko'pgina hukmdorlari ham sohibqiron nomi bilan ulug'langanligi ta'kidlangan. Ushbu atamaning ma'nosi xususida eron, turk, fransuz, qozoq, o'zbek va boshqa tarixshunoslik maktablarida bildirilgan fikrlar xususida mulohazalar yuritilgan.*

**Аннотация**

*В данной статье анализируются существующие в историографии взгляды на происхождение, значение, сущность и применение термина Сахибкиран. Отмечается, что этот термин впервые был использован персидскими историками в Иране во времена монгольских ханов, но получил известность в результате его применения в отношении Амира Темура, а позднее многие правители Мавераннахра и Востока были также прославлены именем Сахибкиран. Даны суждения по поводу мнений, высказанных в иранской, турецкой, французской, казахской, узбекской и других школах историографии относительно значения данного термина.*

**Abstract**

*This article analyzes the existing views in historiography on the origin, meaning, essence and application of the term Sahibkiran. It is noted that this term was first used by Persian historians in Iran during the rule of the Mongol khans, but gained fame as a result of its application in relation to Amir Temur, and later many rulers of Maverannahr and the East were also glorified by the name Sahibkiran. Reflections about the opinions expressed in Iranian, Turkish, French, Kazakh, Uzbek and other schools of historiography regarding the meaning of this term are given.*

**Kalit so'zlar:** Sohibqiron, Mushtariy, Zuhro, burj, yulduz, ilmi nujum, astronomiya, Chingizxon, Amir Temur, Abdullaxon soniy.

**Ключевые слова:** Сахибкиран, Муштарий, Зухро, зодиак, звезда, астрология, астрономия, Чингизхан, Амир Темура, Абдуллахан Второй.

**Key words:** Sahibkiran, Mushtari, Zuhro, zodiac, star, astrology, astronomy, Genghis Khan, Amir Temur, Abdullakhan the Second.

**KIRISH**

Amir Temur haqida so'z yuritar ekanmiz, uning nomini ko'proq Sohibqiron atamasi bilan birgalikda qo'llaymiz. Ko'pchilik tomonidan Sohibqiron so'zini Amir Temur nomiga sinonim sifatida ishlatishini ham kuzatish mumkin. Bu atamaning kelib chiqish tarixi qanday, uning ma'nosida qanday mazmun yashirin, bu atamaning mohiyati nimadan iborat ekanligi xususida esa bir-biridan farqli fikr hamda mulohazalar mavjud. Ularning ba'zilari ilmiy asosga ega bo'lsa, ba'zilari esa xalq orasida tarqalgan tushunchalarga tayanadi. So'nggi yillarda esa bu borada avvallari mavjud bo'lmagan yangi qarashlar ham paydo bo'lmoqda [1: 34-35]. Bu esa Sohibqiron atamasi haqidagi mavjud qarash va tushunchalarni har tomonlama o'rganish, ularni tahlil qilish ehtiyojini tug'dirmoqda. Ushbu maqola mazkur masalani har tomonlama tadqiq etish yo'lidagi dastlabki qadamlardan biri bo'lib, unda bildirilgan fikrlar keyingi tadqiqotlarda yanada sayqallashib, xatolardan xoli bo'lib boradi, degan umiddamiz.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

## TARIX

Ko'pgina tadqiqot, ensiklopediya va lug'atlarda Sohibqiron atamasiga berilgan ta'riflarni ko'rish mumkin [1; 14; 15; 16; 17; 18; 19; 21; 22; 23; 24; 25; 26]. Ammo bu atamaning kelib chiqishi, ma'nosi, mohiyati, qo'llanilish ko'lami (ham davri, ham geografik) xususida alohida tadqiqot uchratmadik. Shundan kelib chiqib mazkur atamaning yuzasidan bildirilgan fikr va mulohazalarni tahlil etishni lozim topdik.

Sohibqiron atamasi bilan bog'liq manbalarni, shuningdek ilmiy adabiyotlarda keltirilgan ilmiy qarashlarni tadqiq etishda ilmiylik, xolislik, tarixiylik tamoyillaridan kelib chiqib, qiyosiy tahlil uslubidan foydalandik.

## NATIJAR VA MUHOKAMA

Dastlab Sohibqiron atamasi qachondan boshlab va kimga nisbatan qo'llanila boshlanganligiga aniqlik kiritib o'tish lozim. Biz tomonimizdan o'rganilgan manba va ilmiy adabiyotlardan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, mazkur atama Chingizxonga nisbatan ham qo'llanilgan. Ammo chingiziylar tarixining asosiy muarrixlar bo'lgan Atomalik Juvayniy va Rashiduddinning asarlarining qo'limizda bo'lgan tarjimalarida Chingizxon bu atama bilan ulug'lanmagan [2; 3; 4]. Bizdagi mavjud manbalar ichida faqatgina Mirzo Ulug'bekning "To'rt ulus tarixi" asarida Chingizxon Sohibqiron atamasi bilan atalgan [5]. Mazkur asar 1425 yili yozib tugallanganligini e'tiborga oladigan bo'lsak, undan avval yozilgan asarlarda Amir Temur Sohibqiron, deya sifatlanganligini ko'rishimiz mumkin. Bundan kelib chiqadiki, bizningcha mazkur manba Chingizxonga nisbatan Sohibqiron atamasi ilk bor foydalanilgan asar hisoblanishi mumkin, ammo hukmdorga nisbatan mazkur atamani birinchi marta ishlatgan asar emas. Shu o'rinda qayd etib o'tish lozimki, Mirzo Ulug'bek ko'plab tarixchilar Alanquvaning o'g'li Buzanjarxonni Sohibqiron, deb ataganliklarini ta'kidlaydi [5: 65].

E'tiborli jihati shundaki, Mirzo Ulug'bek o'z asarini yozishda tayangan manbalarda Chingizxon nomiga Sohibqiron atamasi qo'shib ishlatilmagan. Bu esa Chingizxonga nisbatan Sohibqiron atamasi Mirzo Ulug'bekning o'z tashabbusi bilan ishlatilgan, degan dastlabki mulohazani bildirish imkonini beradi. Albatta, Mirzo Ulug'bekning "To'rt ulus tarixi" asaridan avval yozilgan Chingizxon tarixiga bag'ishlangan barcha manbalar o'rganilganidan so'ng bu fikrimizning qanchalik asosli ekanligi to'liq ayon bo'ladi.

Amir Temur tarixiga bag'ishlangan ilk tarixiy manba hisoblangan G'iyosiddin Ali Yazdiyning "Ro'znomai g'azovoti Hindiston" asarida ham biz Sohibqiron atamasini uchratmadik [6]. Ushbu manbadan biroz keyin yozilib, Amir Temurga taqdim etilgan asar Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma"sidir. Bu asarda Temur Amir Sohibqiron nomi bilan ataladi, ya'ni Sohibqiron atamasidan Temurga nisbatan bizga ma'lum bo'lgan manbalar ichida ilk marta foydalaniladi [7]. Bundan keyin bitilgan Tojiddin Salmoniy, Muiniddin Natanziy va boshqa mualliflarning asarlarida ham Sohibqiron atamasi doimiy ravishda Amir Temurga nisbatan qo'llanib kelingan [8; 9]. Yuqoridagilardan ko'rinadiki, hozircha Sohibqiron atamasi ilk bor Amir Temurga nisbatan qo'llanilgan, degan mulohazani bildirish mumkin. Bu atama Chingizxonga ham aynan temuriylar davridan boshlab qo'llanila boshlagan bo'lishi mumkin.

Sohibqiron atamasi temuriylardan Sulton Husayn Bayqaroga nisbatan ishlatilganligi haqida ba'zi manbalar ma'lumot beradi. Misol uchun Alisher Navoiyning asarlarida bu holatni uchratishimiz mumkin [10]. Ammo eng yirik tarixiy asarlarda Sulton Husayn Bayqaro Sohibqiron atamasi bilan qayd etilgan emas. Shayboniylardan Abdullaxon Soniyga nisbatan ham mazkur atama qo'llanilganligi ma'lum [11]. Ashtarxoniyning yirik vakili bo'lgan Imomqulixon mazkur nom bilan ulug'langan [27: 130<sup>b</sup>]. Buxoro amirlaridan esa Nasrulloxonga nisbatan mazkur atama qo'llanilgan [12]. Xiva xonlarini ham Eltuzarxondan boshlab Sohibqiron atamasi bilan sifatlash odatga aylangan [13]. Qo'qon xonligining ba'zi hukmdorlariga, jumladan, Shohruhbiyning o'g'li Abdurahimbiyga nisbatan ham bu unvon qo'llanilganligi ma'lum.

Temuriylardan keyin Eronda hukmronlik qilgan sulolalarning ko'pgina vakillari ham Sohibqiron unvoni bilan atalgan, ular orasida Shoh Ismoil, Shoh Abbos va Nodirshohlarni alohida ta'kidlash mumkin [26]. Boburiy hukmdorlar vakillarini ham Sohibqiron atamasi bilan ulug'lash holatlari uchraydi. Boburiy hukmdor Shohjahonga nisbatan ushbu unvon qo'llanilganligi haqida ma'lumotlar qayd etilgan [26].

"Sohibqiron" atamasining ma'nosi haqida ham turli tushunchalar mavjud. Dastlab o'zbek tarixshunosligida keng tarqalgan ilmiy doiralarda e'tirof etilgan fikrlarga to'xtalib o'tamiz. Yirik

tarixchi olim, akademik B.Ahmedov "Amir Temur" asarining izohlar qismida sohibqiron atamasining ma'nosi haqida quyidagicha fikr bildirgan: Ikki sharofatli sayyora bir-biriga yaqinlashgan paytda tug'ilgan odam. Masalan, rivoyatlarga qaraganda, Amir Temur ikki sharofatli sayyora: Zuhro (Venera) va Mushtariy (Yupiter) sayyorolari bir-birlariga yaqinlashgan vaqtda tug'ilgan ekan. Uning sohibqiron atalishi ham shundan. Bu so'zning asl ma'nosi "baxtiyor podshoh", "qudratli podshoh" demakdir" [14: 621].

Amir Temur halqaro jamoat fondining rasmiy saytida esa yanada kengroq ta'rif berilgan: "Sohibqiron so'zining arabcha saodatli, zafarli, g'olib ma'nolari bor. Ilmi nujum(astrologiya)da va afsonalarda Mirrix(Mars) – quvvatu shavkat sayyorasi maqomidadir, deyiladi, Mushtariy(Yupiter) – omadu iqbol, muzaffariyatu shodiyonalar sayyoraci sifatida ta'riflanadi. Shu ikki sayyoraning bir burjda uchrashgan vaqti saodatli lahzalardur, uni "qiron" deydilar, shunday vaqtda tug'ilgan bola o'sha qiron sohibi hisoblanadi. Bunday bolaning baxtli, ulug' martabalar egasi bo'lishi oldindan bashorat etiladi. Sharq mamlakatlarida falakiqtidor hukmdorlarga beriladigan sharafli unvon. Amir Temur Ko'ragon shu unvonga musharraf bo'lganlar" [15]. Shuningdek, B.Qodirov, X.Matyoqubovlar qalamiga mansub "O'zbekiston tarixidan mavzular bo'yicha ilmiy izohli lug'at" asarida xuddi shu mazmundagi ma'lumot berilgan [16: 90].

O'zbek tilining izohli lug'atida berilgan izoh ham shunga yaqin bo'lsa-da, unda bu atamaning kelajak borasidagi bashorat mohiyati aniqroq aks etgan: " arabcha so'z صاحب قران qiron egasi. 1. Astrologiya va afsonalarda: Zuhro va Mushtariy yoki zuhra va quyoshning ekliptika davrining ma'lum bir darajasidagi to'qnash kelish vaqti (qiron)da tug'ilgan bola (bunday bolaning baxtli, g'olib, muzaffar va ulug' martabali bo'lishi bashorat qilingan). 2. Sharq mamlakatlarida: qudratli hukmdor, jahongir unvoni. 3. Amir Temurning sharafli unvoni" [17: 697].

O'zbekiston ensiklopediyasida ham deyarli shunday ma'lumot berilgan: "(arab. – saodatli, zafarli, g'olib) – 1) ilmi nujum (astrologiya) va afsonalarda – Zuhra va Mushtariy yoki Zuhra va Quyosh sayyoralari birlashishi, ya'ni ular ekliptikaning ma'lum bir darajasida to'qnash kelishi vaqti (qiron)da tug'ilgan bola, bunday bolaning baxtli, ulug' martabali bo'lishi oldindan bashorat qilingan; 2) Sharq mamlakatlarida, xususan, Eron va Turonzaminda qudratli hukmdor, jahongir unvoni (Faridun, Chingizxon va h.k.); 3) Amir Temurning sharafli unvoni" [18: 556]. Ammo bu o'rinda sohibqiron so'zining lug'aviy ma'nosi emas, saodatli, zafarli, g'olib so'zlari orqali uning mazmuni, mohiyati keltirilganligini ko'ramiz.

Amir Temurga nisbatan Sohibqiron atamasining qo'llanilishi bo'yicha kam tarqalgan bo'lsa-da, boshqa fikrlar ham mavjud. G'iyosiddin Muhammad Yusuf bu haqida quyidagicha so'z yuritadi: "Temurning «Sohibqiron» deb atalishi sababi bo'yicha bir qancha mulohazalar bor, lekin menimcha, eng munosibi «sohibi Qur'on» deya atalishidan shu laqab kelib chiqqan bo'lishi mumkin. Chunki ba'zi manbalarda Temur yoshligidanoq Qur'onni yod olgan, deb aytilgan"[19].

Yuqoridagilar o'zbek tarixshunosligi va boshqa ilmiy doiralarda mavjud bo'lgan Sohibqiron atamasining lug'aviy ma'nosi, mazmuni hamda mohiyati bo'yicha tushunchalarni aks ettirgan.

Sharafuddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asarida ham Amir Temurning tug'ilishi va uning baxtli kelajagi xususidagi bashoratlar ilmi nujum orqali izohlangan: "... saltanat qavo'idida va xilofat to'rida aning muborak vujudi va saodatmand bunyodi jahon ichra oxiruzzamoning sohibqironi bo'lg'ay va mundin yaxshiroq dalili bo'lmag'ay. Aning uchunkim, bu sohibdavlatning toli'i Jadiy burjida tushti. Va bu burjning xosiyati ul tururkim, har kim bu burjdag'i toli'ida mutavvallud bo'lsa, kamoli saltanat avjida yetkay va barcha salotinlarg'a sarvar bo'lub, har nakim ko'ngliga kechkay, anga muyassar bo'lg'ay. Va naysiri a'zam, ya'ni Oftobkim, jalolatning yulduzi turur, to'rtinchi vataddakim, qaror va sabot evi turur va o'z yerida sharaf bila Utoridqa nechukkim, Oftob davri bo'lg'ay, yigirmi ikkinchi daraja Hamalda fath va firuzluq alamini ko'tarib, iqbol manshuring saodat tavqi'i bila yasab tururkim, zuhuri mahalliyda o'z maqomi aslida zohir bo'lg'ay va anda podshohliq qilg'ay. Va ul mamlakatni zebu ziynat bobida barcha mamlakatlardan yaxshiroq tarbiyat qilg'ay. Va Mupggariykim, saodatning kavkabi turur, va Mirrixkim, quvvat va shavkat yulduzi turur, beshinchi toli'kim, farzand evi turur, bu kavkabl bilan yirik bu xosiyat berdikim, bu saodatmand farzandqa Haq subhonahu va taolo davlatmand o'g'ullar karomat qilg'ay va davlat alarning ichida mustadom bo'lg'ay" [20:13]. Bundan ko'rinadiki, Sohibqiron atamasini o'zbek tarixshunosligida e'tirof etilgan ma'nosi va mazmunining shakllanishiga ushbu manba katta ta'sir ko'rsatgan.

## TARIX

Sohibqiron atamasining jahon tarixshunosligida qanday tushunilishi masalasi ham qiziqarliqdir. Fransuz tarixshunosligida Amir Temur va temuriylar davri tarixini o'rganish juda yaxshi rivoj topganligi qayd etish lozim. Fransuz tarixshunoslik maktabining asoschilaridan biri Bartelemi D Erbelot Sohibqiron atamasi Temurga arablar, forslar va turklar tomonidan berilgan unvon ekanligini qayd etarkan, uning kelib chiqishi astronomik tushunchalar bilan bog'liqligini ta'kidlaydi. Shuningdek, bu atamaning kelib chiqishidagi qiron so'zini kern deb tushunish mumkinligini, kern esa dunyoning to'rtta asosiy qismidan, ya'ni Sharq, G'arb, Shimoliy va Midiyadan iborat bo'lib, u erda buyuk jahongirlar o'zlarining g'alabali qurollarini ko'targanliklarini bildiradi [21: 734-771]. Bu o'rinda muallif "qiron" va "kern" so'zlarining fransuzcha talaffuzdagi yaqinligidan kelib chiqqan bo'lishi mumkin. Yana bir fransuz tarixchisi Jozef de Gin esa Sohibqiron so'zini "Dunyoning ustasi" ma'nosida tushunadi [22].

Turk temurshunosi Xayrunisa Alan Sohibqiron atamasining kimlarga nisbatan qo'llanilishi masalasiga to'xtalib o'tgan. Uning fikrlari ham o'zbek tarixshunosligida keltirilgan fikrlarga juda yaqin. Zuhro va Mushtariy yulduzlarining bir burjga kelgan vaqtida tug'ilgan ma'nosida ekanligini qayd etgan va qutli, baxtiyor, toleyi yor mazmuniga ega ekanligi ta'kidlagan. Shuningdek, Sulton Salim va Sulaymon Qonuniy kabi turk sultonlari ham bu atama bilan ta'riflanganligini qayd etadi [23]. Yana bir turk muallifi Gelibolulu Mustafa Ali ko'proq Sohibqiron so'zining mazmuniga e'tibor bergan va muzafarlilik, jahongirlik, mamlakatlarni zabt etuvchilik deya e'tirof etgan [24].

Ochiq ensiklopediya sifatida yuritiladigan vikipediyaning fors tilidagi sahifalarida va internetda mavjud fors tilidagi lug'atlarda Sohibqiron atamasiga juda keng ta'rif berilgan. Unda o'zbek va turk tarixshunosligida berilgan tushunchalar ham qayd etilgan bo'lsa-da, farqli jihati shundaki bu unvon 30-40 yillik davomida davlatni boshqargan hukmdorlarga ham berilganligi ta'kidlangan [25; 26]. Shu ma'noda Eronda hukmronlik qilgan sulolalar vakillarining bir qanchasi sohibqiron unvoni bilan ta'riflanishi izohlangan. Shu o'rinda qayd etishimiz lozimki, Sohibqiron atamasini bu kabi tushunish O'zbekistonda ham uchraydi. Ammo bu ta'riflarga noilmiy doiralarda og'zaki suhbatlarda duch kelganimiz sababli ularga ko'p e'tibor bermagan edik. Bizningcha, bu tushunchalarning kelib chiqishi forsiy ildizlarga ega yoki ularning shakllanishiga fors tilidagi ma'lumotlar ta'sir etgan mumkin bo'lishi mumkin. Shundan kelib chiqib, Abdullaxon soniy, Nasrulloxon va Xiva hamda Qo'qon xonliklaridagi ba'zi hukmdorlarning Sohibqiron unvoni bilan ta'riflanishi ham tushunsa bo'ladi.

Ammo shu o'rinda qayd etib o'tish lozimki, fors tilidagi ma'lumotlarda Sohibqiron atamasi ilk bor Amir Temurga nisbatan 1420 yilda Mahmud Katibiy tomonidan yozilgan "Tarixiy Muzaffar" asarida qayd etilganligi to'g'ri emasligini ta'kidlash lozim [26]. Yuqorida ko'rib chiqqanimizdek, bu atamani birinchilardan bo'lib 1404 yili yozilgan Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma" asarida Amir Temurga nisbatan qo'llanilgan edi.

Shu o'rinda qozoq tarixshunosligida o'rtaga tashlangan bir mulohaza, Sohibqiron atamasi borasidagi shu kungacha mavjud bo'lgan barcha qarashlardan butkul farq qiladi. O'rta asr manbalari bo'yicha yirik mutaxassis Islom Jemeney Amir Temur tarixiga bag'ishlangan tadqiqotida Sohibqiron so'zini quyidagicha izohlaydi: "Sohibqiron Amir Temurga berilgan ism, taxallus. 1 – Sohib (صاحب) (ho'ja, hoo'jayin. 2. Qiron (1) قيران. Yirtqich qushlarning umumiy nomi. 2. – Qozoq tilining izohli lug'ati qahramon, mard, jasur degan ma'nolarni bildiradi. Demak, Sohibqiron iborasi birgalikda yoki alohida yozilishi mumkin." [1: 34-35]. Bu ta'rifning e'tiborli jihatlari quyidagilardan iboratdir. Birinchidan, muallif Sohibqiron atamasining kelib chiqishi va lug'aviy ma'nosini tushuntirishda butunlay yangi yo'ldan boradi. U Sohib so'zining ma'nosini barcha kabi qabul qilgani holda qiron so'zining turkiy ildizlarga olib boradi. Qiron so'zi turkiy tillarda yirtqich qushlarning umumiy nomi sifatida ma'no anglatishini bildiradi. Ikkinchidan, turkiy xalqlar qadimdan ov mashg'ulotlarni shug'ullanib kelgan. Ayniqsa, ov qilish aslzodalarning sevimli mashg'uloti hisoblangan. Temuriylar sulolasining vakillari, jumladan, Amir Temurning o'zi ham juda ovga qiziqan hukmdor bo'lganligi ma'lum. Uchinchidan, temuriylar davrida qushlar yordamida ov qilish urf hisoblanganligini ham yodda tutish lozim. To'rtinchidan, hukmdorlar ham bir birlariga sovg'a sifatida ov qushlarini yuborganliklari xususida manbalarda ko'plab ma'lumotlar uchraydi. Bu esa ov qushlarini temuriylar davrida juda qadrlanganligini bildiradi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, Islom Jemeneyning Sohibqiron so'ziga bergan izohini masalaga yangicha bir qarash sifatida qadrli ekanligini qayd etish mumkin.

### XULOSA

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, Sohibqiron atamasini siyosiy unvon sifatida qo'llash XIV asr oxiri XV asr boshlarida boshlangan. Biz o'z o'rganganlarimizdan kelib chiqib, bu atama ilk bor Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma" asarida Amir Temurga nisbatan qo'llanilgan, degan dastlabki xulosaga keldik. Sohibqiron atamasi Chingizxonga nisbatan ham temuriylar davridan boshlab qo'llanilgan bo'lib, u odatda Mirzo Ulug'bekning "To'rt ulus tarixi" asarida "Sohibqironi muazzam", deb atalgan. Bu esa Sohibqiron atamasini Chingizxonga nisbatan ilk bor Mirzo Ulug'bek qo'llaganligi xususida taxmin qilish imkonini beradi.

Sohibqiron atamasining ilmi nujum bilan bog'liq bo'lgan izohi eng keng tarqalgan va ilmiy doiralarda qabul qilingan mulohaza bo'lib, mutloq ko'pchilik tomonidan shu ma'noda tushuniladi. O'sha davrda ilmiy nujum fanining rivoj topganligini, kishilarning taqdirini yulduzlar orqali bashorat qilish odatga aylanganligini hamda har bir kishining yulduzlar harakati orqali ishlab chiqilgan o'z tolenomasi mavjud bo'lganligini e'tiborga oladigan bo'lsak bu izohning, ya'ni Sohibqiron atamasining lug'aviy ma'nosining kelib chiqishi astronomik tushunchalar bilan bog'liqligini, keng tarqalishini sabablarini anglash mumkin. Mazkur izohga ko'ra Sohibqiron atamasi Amir Temurga nisbatan ishlatilgan.

Yuqorida ko'rib chiqqanimizdek, internetning fors tilidagi sahifalarida mavjud bo'lgan lug'atlarda 30-40 yil hukmronlik qilgan va qator g'alabalarga erishgan davlat arboblarning Sohibqiron atamasi bilan ta'riflanishi xususidagi ma'lumotlar keng tarqalgan. Shu tushunchalardan kelib chiqib, Turkiya, Eron, Hindiston va O'rta Osiyoda hukmronlik qilgan ko'plab va siyosiy hamda harbiy faoliyatida katta yutuqlarga, g'alabalarga erishgan davlat arboblari ham Sohibqiron atamasi bilan ulug'langan.

Sohibqiron atamasining lug'aviy ma'nosi bo'yicha qozoq olimi Islom Jemeney tomonidan bildirilgan mulohaza esa masalaga yangicha yondashuv sifatida e'tiborlidir. Qiron so'zining yirtqich qushlarning umumiy nomi sifatida bildirilgan izoh bo'yicha qo'shimcha tadqiqotlar olib borish va uni temuriylar davri ijtimoiy hayoti bilan uyg'un holda tadqiq etish bu masalada yanada kengroq xulosalar chiqarish imkonini berishi mumkin.

Ushbu maqola Sohibqiron atamasining lug'aviy ma'nosi, mazmuni, mohiyati, qo'llanilish ko'lamini (ham davriy, ham geografik) borasida fikr mulohazalarni tahlil etish bo'yicha ilk urinish bo'lib, bunda bildirilgan fikr va mulohazalar navbatdagi tadqiqotlarda o'z tasdig'ini topishi yoki inkor etilishi tabiiy. Biz mazkur kichik tadqiqotimiz orqali masalaga ilm ahli e'tiborini torta olgan bo'lsak, dastlabki maqsadimizga erishgan hisoblanamiz.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Jemeney I., Usmonov B. — Amir Temurning siyosiy faoliyati va yurishlaril — Olmaota-Farg'ona: Classic, 2024.
2. Жувайний, Алоуддин Атомалик. Тарихи жаҳонкушо (Жаҳон фотиҳи тарихи) / Алоуддин Атомалик Жувайний, маъсул муҳаррирлар Х. Болтабоев, М.Махмудов. - Тошкент: MUMTOZ SO'Z, 2015.
3. Рашид ад-дин. Сборник летописей / перевод с персидского О.И. Смирновой, примечаниуа Б.И. Панкиратова, О.И. Смирновой, редакция проф. А.А. Семенова. Том 1 книга второуа — М.: Наука, 1952.
4. Фазлуллох Рашид-ад-дин. Джами-ат-таварих. — Баку:Нагыл Еви, 2011.
5. Мирзо Улуг'бек. То'рт улус тарихи / форс тилидан Бо'рибой Аҳмедов, Наим Норқулов, Маҳмуд Насаний таржимаси. Б. Аҳмедовнинг кириш со'зи, иг'ohlари ва таҳрири билан — Т.: Чo'лпон, 1994.
6. Гийасиддин Али. Дневник похода Тимура в Индию / перевод с персидского, предисловие и примечаниуа А.А. Семенова — М.: ИВЛ, 1958.
7. Низомиддин Шомий. Зафарнома /Форс тилидан о'гирувчи — Ю.Накимжонов, таржимани қайта ишлаб нашрга тайёрловчи ва маъсул муҳаррир — А.О'ринбоев, изоҳлар ва луг'атларни тузувчи — Н.Кароматов (жуг'рофий номлар изоҳи — О.Бо'риевники), Нофизу Аbruни «Зафарнома»га ёзган «Зайл»и(«Илова»)ни форсийдан о'гирувчи ва изоҳларини тузувчи — О.Бо'риев -Т.: О'збекистон, 1996.
8. Tacus Selman. Tarixname, Seviren : Prof. Dr. Ismail Aka — Ankara: Turk tarixi kurumi basimevi, 1988. — 136 s.
9. Муиниддин Натанзий . Мунтахаб ут-тавориҳи Муиний. / Форс тилидан таржима, со'з боши ва изоҳлар муаллифи - Гулом Каримий - Т.: О'збекистон, 2011.
10. Алишер Навоий. Асарлар. 15 томлик. Т. 12. Маҷолисун-нафоис. Нашрга тайёрловчи С. Г'аниева. — Т.: Г'афур Гулом,1966.
11. Нофиз Таниш ал-Бухорий. Абдуллонома / Форс тилидан Содиқ Мирзаев таржимаси. Илмий муҳаррир, нашрга тайёрловчи, со'з боши ва изоҳлар муаллифи: академик Б. Аҳмедов — Т. : Шарқ, 1999.
12. Зафаномайи хусравий / Форс-тожик тилидан таржимонлар, изоҳ ва ко'рсаткичлар муаллифлари Шодмон Воҳидов ва Шерали Жо'раев. — Тошкент: Тарихий мерос, 2011.
13. Шермуҳаммад Авазбий мироб о'г'ли Мунис, Муҳаммад Ризо Эрнийезбек о'г'ли Огаҳий. Асарлар. 2-жилд, 1-китоб. Фирдавсу-л-иқбол (бахт-саодат жаннати). / Нашрга тайёрловчи, кириш ва изоҳлар муаллифлари:

## TARIX

филологиya fanlari nomzodi Исмоил Бекчонов ва тарих fanlari nomzodi Неъматжон Полвонов – Тошкент, 2019.

14. Аҳмедов Б. Амир Темур. Тарихий роман. – Т.: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1995.

15. <http://temuriy.uz/2022/09/20/shanba/>

16. Қодиров Б. Матёқубов Х. О'збекистон тарихидан мавзулар бо'йича илмий изоҳли луг'ат. – Т.: Фалсафа ва ҳуқуқ институти нашриёти, 2008.

17. О'збек тилининг изоҳли тарихи. То'ртинчи жилд. – Т.: Г'афур Г'улом, 2023.

18. О'збекистон миллий энциклопедиyasi. С нарфи. – Т.: «О'збекистон миллий энциклопедиyasi» Давлат илмий нашриёти, - 839 б.

19. <https://e-tarix.uz/maqolalar/1063-maqola.html>

20. Шарафиддин Али Йаздий. Зафарнома. /Со'з боши, табдил, изоҳлар ва ко'рсаткичлар муаллифлари А.Ахмад ва Н.Бобобеков, -Т.: Шарқ, 1997.

21. Barthélemy d'Herbelot de Molainville. Bibliothèque Orientale ou dictionnaire universel. – Paris, 1697.

22. De Guignes J. Histoire Générale des Huns, des Turcs, des Mogols et des autres Tartares Occidental avant et depuis Jesus Christ jusqu'a à present. – Paris: Desaint et Saillant, 1758. Vol. 4. P. 2.

23. Hayrunnisa Alan, "Sâhipkiran", TDV İslâm Ansiklopedisi, b. 443-444.

24. De Guignes J. Histoire Générale des Huns, des Turcs, des Mogols et des autres Tartares Occidental avant et depuis Jesus Christ jusqu'a à present. – Paris: Desaint et Saillant, 1758. Vol. 4. P. 2.

25. <https://fa.wikipedia.org/wiki/%D8%B5%D8%A7%D8%AD%D8%A8%D9%82%D8%B1%D8%A7%D9%86>

26. [https://fa.wikifeqh.ir/%D8%B5%D8%A7%D8%AD%D8%A8%D9%82%D8%B1%D8%A7%D9%86#\\_%D8%B5%D8%A7%D8%AD%D8%A8%D9%82%D8%B1%D8%A7%D9%86#\\_%D8%B5%D8%A7%D8%AD%D8%A8%D9%82%D8%B1%D8%A7%D9%86%20%D8%A9%D8%AA%D8%A7%D8%A8%E2%80%8C%D9%87%D8%A7](https://fa.wikifeqh.ir/%D8%B5%D8%A7%D8%AD%D8%A8%D9%82%D8%B1%D8%A7%D9%86#_%D8%B5%D8%A7%D8%AD%D8%A8%D9%82%D8%B1%D8%A7%D9%86%20%D8%A9%D8%AA%D8%A7%D8%A8%E2%80%8C%D9%87%D8%A7)

27. امام علی خان دامادہ. O'zR FA Shl. Qo'lyozma №89.